

**KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNI
TARBIYALASHNING PEDAGOGIK VA KORREKSION
XUSUSIYATLARI**

Xonqulova Zohida Sherali qizi
ATMU Defektologiya yo'nalishi talabasi
Sattorova Mohira Aminqulovna
ATMU pedagogika kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik va korreksion xususiyatlari tahlil qilingan. Tarbiyaning mohiyati, maqsadi va vazifalari, ko'zi ojiz hamda zaif ko'ruvchi bolalarning rivojlanishidagi o'ziga xos jihatlar yoritilgan. Shuningdek, axloqiy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasining mazmuni, ijtimoiy moslashuvni shakllantirish yo'llari hamda zamonaviy tiflopedagogik yondashuvlarning ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot davomida ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda ijtimoiy faollik va ma'naviy fazilatlarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: tiflopedagogika, ko'zi ojiz bolalar, zaif ko'ruvchi bolalar, maxsus ta'lim, tarbiya.

Kirish

Bugungi globallashuv va axborotlashuv davrida har bir bolaning sifatli ta'lim va tarbiya olish huquqini ta'minlash jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalasi maxsus pedagogika fanining dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Ko'rish analizatori insonning tashqi olam haqidagi axborotlarni qabul qilishida asosiy o'rin egallaydi. Atrof-muhit haqidagi ma'lumotlarning katta qismi aynan ko'rish orqali olinadi. Shu sababli ko'rish qobiliyatining to'liq yoki qisman buzilishi bolaning bilish faoliyati, nutq rivojlanishi, harakatlanishi, fazoda mo'ljal olishi, muloqotga kirishishi va ijtimoiy tajriba orttirish jarayonlariga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ayrim psixik jarayonlar va shaxsiy sifatlarning shakllanishida o'ziga xos xususiyatlar kuzatiladi.

Shu bilan birga, ko'rishida nuqson mavjudligi bolaning intellektual rivojlanishiga to'siq bo'la olmaydi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni, korreksion-pedagogik yordam va qulay ijtimoiy muhit orqali bunday bolalar o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon eta oladilar. Maxsus maktablar va



ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari aynan shu maqsadga xizmat qilib, bolalarning bilim olishi, ijtimoiy moslashuvi va mustaqil hayotga tayyorlanishini ta'minlaydi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash umumiy pedagogik tamoyillarga asoslangan holda olib boriladi. Biroq tarbiya jarayonida bolaning individual xususiyatlari, nuqsonning darajasi, psixofiziologik rivojlanish holati va kompensator imkoniyatlari albatta hisobga olinadi. Tarbiya ishlari nafaqat ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga, balki birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni korreksiyalash, mavjud imkoniyatlarni rivojlantirish hamda ijtimoiy hayotga moslashtirishga ham qaratiladi.

Tiflopedagogika fanida ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, L.S. Vygotskiy, A.G. Litvak, V.R. Yermakov, L.I. Solntseva kabi olimlar nuqsonli rivojlanish sharoitida shaxsning shakllanish qonuniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Ularning fikricha, tarbiya va ta'limning to'g'ri tashkil etilishi bolaning rivojlanishidagi mavjud qiyinchiliklarni kamaytirish va kompensator imkoniyatlarni kengaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar, axborot-kommunikatsiya vositalari hamda individual ta'lim metodlaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, bolalarning mustaqilligi va ijtimoiy faolligini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasining mohiyati. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasining mohiyati ularni har tomonlama rivojlangan, mustaqil, ijtimoiy faol va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan maqsadli pedagogik jarayonni anglatadi. Tarbiya jarayoni ko'rish nuqsonining mavjudligi sababli yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish, bolaning saqlanib qolgan imkoniyatlarini rivojlantirish hamda uning jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Ko'rish qobiliyati insonning atrof-muhit haqidagi ma'lumotlarni qabul qilishida muhim o'rin tutadi. Ko'rishning buzilishi yoki yo'qligi natijasida bolalarning predmet va hodisalarni idrok etishi, fazoda mo'ljal olishi, ijtimoiy tajribani egallashi hamda atrofdegilar bilan muloqot qilishi ma'lum darajada cheklanadi. Shu sababli ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan tarbiya ishlari umumiy tarbiyaviy vazifalar bilan bir qatorda korreksion va kompensator vazifalarni ham qamrab oladi. Tarbiyaning mohiyati, avvalo, bolaning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Tarbiya jarayonida bolalarda insonparvarlik, halollik, vatanparvarlik, mas'uliyat, mehnatsevarlik, intizomlilik va mustaqillik kabi muhim fazilatlar shakllantiriladi. Mazkur sifatlar bolaning nafaqat ta'lim olishida, balki kelajakdagi mustaqil hayotida ham muhim ahamiyat kasb etadi.



Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasining yana bir muhim jihati ularning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashdan iborat. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarda ayrim hollarda tortinchoqlik, o'ziga ishonchsizlik, muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Tarbiya jarayoni orqali ushbu salbiy holatlarning oldi olinadi, bolalarda jamoada yashash, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish ko'nikmalari shakllantiriladi. Tarbiyaning mohiyati bolaning mavjud imkoniyatlariga tayangan holda uning kompensator qobiliyatlarini rivojlantirish bilan ham belgilanadi. Tiflopedagogik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda eshitish, sezish, hid bilish va harakat analizatorlari nisbatan faol rivojlanadi. Tarbiya jarayonida ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish bolaning atrof-muhitni to'laroq anglashiga yordam beradi. Natijada bola kundalik hayot faoliyatida mustaqillikka erishadi va o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi ortadi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasining mohiyatini ochib berishda korreksion yo'nalish alohida ahamiyatga ega. Korreksion tarbiya orqali nuqson tufayli yuzaga kelgan ikkilamchi kamchiliklarni bartaraf etish, nutqni rivojlantirish, fazoda mo'ljallash olish malakalarini shakllantirish hamda harakat faoliyatini takomillashtirish ishlari amalga oshiriladi. Bu esa bolaning psixik va jismoniy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Tarbiyaning mohiyati shuningdek bolani mustaqil hayotga tayyorlashda ham namoyon bo'ladi. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar kundalik turmushda zarur bo'ladigan ko'nikmalarni, jumladan, o'z-o'ziga xizmat qilish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya etish, mehnat qilish va xavfsiz harakatlanish malakalarini egallashlari zarur. Bu ko'nikmalar ularning kelajakda jamiyatda munosib o'rin egallashlari uchun muhim omil hisoblanadi.

Tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashning asosiy maqsadi – har tomonlama rivojlangan, mustaqil, ma'naviy barkamol va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishdir.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar bajariladi:

- axloqiy fazilatlarni shakllantirish;
- mustaqillik va o'z-o'ziga xizmat qilish malakalarini rivojlantirish;
- fazoda mo'ljallash olish ko'nikmalarini hosil qilish;
- ijtimoiy moslashuvni ta'minlash;
- mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish;
- estetik didni shakllantirish;
- sog'lom turmush tarziga o'rgatish;
- birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarni korrektsiyalash;
- kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish.

Tiflopedagogik yondashuvning ahamiyati. Tiflopedagogika maxsus pedagogikaning ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rganuvchi sohasi hisoblanadi. Tiflopedagogikaning asosiy



vazifasi bolaning saqlanib qolgan imkoniyatlariga tayangan holda uning rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

L.S. Vygotskiyning ta'kidlashicha, nuqsonning o'zi emas, balki uning ijtimoiy oqibatlarini bolaning rivojlanishiga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli tarbiya jarayonida bolaning ijtimoiy faolligini oshirish va uni jamiyat hayotiga tayyorlash muhim hisoblanadi. V.R. Yermakov ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashda mustaqillikni rivojlantirish, fazoda mo'ljal olish va kundalik hayot ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratgan.

Axloqiy tarbiya. Axloqiy tarbiya ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Axloqiy tarbiya jarayonida bolalarda jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy me'yorlar, xulq-atvor qoidalari, insoniy fazilatlar va ijtimoiy munosabatlarga nisbatan to'g'ri qarashlar shakllantiriladi. Axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni vatanparvar, halol, mehribon, mas'uliyatli, mehnatsevar va jamiyatga foydali insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish umumiy ta'lim muassasalaridagi tarbiyadan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Chunki ko'rish nuqsoni tufayli ular ayrim ijtimoiy vaziyatlarni bevosita kuzatish imkoniyatidan cheklangan bo'ladilar. Shu sababli axloqiy tushunchalarni shakllantirishda suhbat, tushuntirish, namuna ko'rsatish, badiiy asarlar bilan tanishtirish va amaliy faoliyatga keng o'rin beriladi. Axloqiy tarbiya jarayonida bolalarda quyidagi fazilatlarni rivojlantirish muhim hisoblanadi:

- insonparvarlik va mehr-oqibat;
- kattalarga hurmat va kichiklarga g'amxo'rlik;
- halollik va rostgo'ylik;
- mehnatsevarlik va mas'uliyatlilik;
- vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga hurmat;
- jamoada yashash va hamkorlik qilish madaniyati;
- do'stlik va o'zaro yordam ko'rsatish odatlari.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun axloqiy tarbiya nafaqat nazariy bilimlar berish, balki kundalik hayotda axloqiy me'yorlarga amal qilish ko'nikmalarini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Masalan, maktabda, oilada va jamoat joylarida o'zini tutish qoidalariga rioya qilish, boshqalarning fikrini hurmat qilish, o'z vazifalarini vijdonan bajarish kabi sifatlarni amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlanadi.

Tiflopedagogik amaliyotda axloqiy tarbiyaning samarali vositalaridan biri badiiy adabiyot hisoblanadi. Turli ertaklar, hikoyalar, rivoyatlar va hayotiy voqealar asosida bolalarda yaxshilik va yomonlik, adolat va insofsizlik, do'stlik va xiyonat kabi tushunchalar shakllantiriladi. Bunday faoliyat bolalarning axloqiy ongini rivojlantirishga va ularda mustaqil axloqiy qarashlarning



shakllanishiga yordam beradi.

Estetik tarbiya. Estetik tarbiya ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u bolalarda go'zallikni his qilish, san'atni qadrlash, estetik did va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Estetik tarbiya orqali bolaning hissiy dunyosi boyiydi, ma'naviy olami kengayadi va hayotga nisbatan ijobiy munosabati shakllanadi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda estetik tarbiya o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular ko'rish orqali qabul qilinadigan estetik taassurotlarni cheklangan holda qabul qilganliklari sababli estetik tarbiyada eshitish, sezish va harakat analizatorlariga tayaniladi. Musiqa tinglash, badiiy asarlarni o'qish yoki tinglash, tabiat tovushlarini his qilish, turli buyumlarning shakli va tuzilishini paypaslab o'rganish estetik tarbiyaning muhim vositalari hisoblanadi. Estetik tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- go'zallikni his qilish va qadrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- san'at asarlariga qiziqishni shakllantirish;
- ijodiy faoliyatga rag'batlantirish;
- estetik didni rivojlantirish;
- madaniy xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar estetik tarbiyasida musiqa alohida o'rin tutadi. Musiqa bolaning hissiy kechinmalariga kuchli ta'sir ko'rsatib, unda go'zallikni his etish, zavqlanish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu sababli maxsus maktablarda musiqa mashg'ulotlari, qo'shiq kuylash, cholg'u asboblari ijro etish va ritmik harakatlar keng qo'llaniladi. Badiiy adabiyot ham estetik tarbiyaning muhim vositasi hisoblanadi. She'rlar, hikoyalar, dostonlar va boshqa adabiy asarlar orqali bolalarda estetik tasavvurlar boyiydi, nutq madaniyati rivojlanadi hamda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usi shakllanadi. Bundan tashqari, turli bayramlar, madaniy tadbirlar, teatr tomoshalari, ijodiy ko'rik-tanlovlar va to'garak mashg'ulotlari bolalarning estetik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Bunday tadbirlar ularning qobiliyatlarini namoyon etish, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya. Jismoniy tarbiya ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning sog'lig'ini mustahkamlash va harakat faolligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ko'rish nuqsoni tufayli ayrim bolalarda harakat koordinatsiyasi, muvozanatni saqlash va fazoda harakatlanish qiyinchiliklari kuzatiladi.

Jismoniy tarbiya quyidagi vazifalarni bajaradi:

- organizmni chiniqtirish;
- harakat faoliyatini rivojlantirish;
- qomatni to'g'ri shakllantirish;
- koordinatsiyani yaxshilash;



- sog'lom turmush tarziga o'rgatish.

Maxsus mashqlar, sport o'yinlari, sayrlar va sog'lomlashtiruvchi tadbirlar jismoniy rivojlanishning samarali vositalari hisoblanadi.

Mehnat tarbiyasi. Mehnat tarbiyasi ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni mustaqil hayotga tayyorlashning muhim tarkibiy qismidir. Mehnat faoliyati orqali bolalarda javobgarlik, intizom, sabr-toqat va mehnatsevarlik kabi sifatlar shakllanadi. Mehnat tarbiyasi kundalik hayotiy ko'nikmalarni egallash, o'z-o'ziga xizmat qilish, kasb-hunarga qiziqishni rivojlantirish va kelajakdagi mustaqil faoliyat uchun zamin yaratadi.

Oilaning tarbiyadagi o'rni. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashda oilaning roli beqiyosdir. Oila bolaning birinchi ijtimoiy muhiti bo'lib, uning shaxs sifatida shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar bolaga nisbatan ortiqcha himoyachilik qilmasdan, aksincha, mustaqillikni rivojlantirishga ko'maklashishlari zarur. Pedagog va ota-onalar hamkorligi tarbiya samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy moslashuv masalalari. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni jamiyat hayotiga tayyorlash tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biridir. Ijtimoiy moslashuv jarayonida bolalarda muloqot madaniyati, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Maxsus maktablarda tashkil etiladigan madaniy tadbirlar, sport musobaqalari, ekskursiyalar va turli to'garaklar ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni. Bugungi kunda tiflopedagogik amaliyotda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Braille yozuvi, audio kitoblar, ekran o'quvchi dasturlar va maxsus mobil ilovalar bolalarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, art-terapiya, musiqa terapiyasi, biblioterapiya va innovatsion pedagogik texnologiyalar tarbiya samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash maxsus pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu jarayon bolaning har tomonlama rivojlanishi, ijtimoiy hayotga moslashuvi va mustaqil shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'rish nuqsoni bolaning atrof-muhitni idrok etish, muloqot qilish, fazoda mo'ljal olish va hayotiy tajribalarni egallash imkoniyatlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatsa-da, to'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni ushbu qiyinchiliklarni sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiyasining asosiy maqsadi ularni ma'naviy barkamol, axloqan yetuk, jismonan sog'lom, mehnatsevar va mustaqil hayotga tayyor shaxslar sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Mazkur maqsadga erishishda axloqiy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasining o'zaro



uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tarbiya jarayonida bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, uning saqlanib qolgan imkoniyatlariga tayanish hamda kompensator qobiliyatlarini rivojlantirish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda mustaqillik, ijtimoiy faollik, o'ziga bo'lgan ishonch va muloqot madaniyatini shakllantirishda korreksion-pedagogik ishlar muhim o'rin tutadi. Maxsus tashkil etilgan tarbiyaviy tadbirlar, jamoaviy faoliyatlar, mehnat va sport mashg'ulotlari, madaniy-ma'rifiy ishlar bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalashda oila, maktab va jamiyat hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Ota-onalar tomonidan yaratilgan qulay psixologik muhit, pedagoglarning kasbiy mahorati va jamiyatning qo'llab-quvvatlovchi munosabati bolaning to'laqonli rivojlanishiga zamin yaratadi. Shuningdek, bolalarda mustaqil hayot ko'nikmalarini shakllantirish, kasb-hunarga yo'naltirish va ijtimoiy integratsiyani ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni tarbiyalash nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Mazkur jarayonning ilmiy asosda tashkil etilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va korreksion metodlardan samarali foydalanilishi natijasida ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarni jamiyatning faol, mustaqil, raqobatbardosh hamda ma'naviy yetuk a'zolari sifatida voyaga yetkazish mumkin. Bu esa o'z navbatida inklyuziv va adolatli jamiyat qurish yo'lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ермаков В.Р., Якунин Г.А. Основы тифлопедагогики. – М.: Владос, 2000.
2. Выготский Л.С. Основы дефектологии. – М.: Просвещение, 1995.
3. Литвак А.Г. Психология слепых и слабовидящих. – СПб., 2006.
4. Солнцева Л.И. Тифлопсихология детского возраста. – М., 2000.
5. Плаксина Л.И. Теоретические основы коррекционной работы в школах для детей с нарушением зрения. – М., 1998.
6. Назарова Н.М. Специальная педагогика. – М.: Академия, 2008.
7. Малофеев Н.Н. Специальное образование в России. – М., 2010.
8. Пузанов Б.П. Коррекционная педагогика. – М., 2011.
9. Po'latova P.M., Mamarajabova Z., Nurmuhamedova L.Sh. Maxsus pedagogika. – T.: Fan va texnologiyalar, 2014.
10. Mavlonova R., To'rayeva O. Pedagogika. – T.: O'qituvchi, 2008.
11. Hasanboyeva O.U. Pedagogika. – T.: Fan va texnologiyalar, 2019.



O'ZBEKISTON: ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOT MASALALARI

12. Shoumarov G'. Maxsus pedagogika va psixologiya. – T.: O'qituvchi, 2011.
13. Nurmuhamedova L.Sh. Tiflopedagogika. – T., 2017.